



UDK:811.512

Namuna NAZAROVA,
Perfect-university Gumanitar fanlar kafedrasida dotsent v.b., PhD
E-mail: namunanazarova@819gmail.com

Oriental universiteti dotsenti A.Abdumannotov taqrizi asosida

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA TALMEH SAN'ATINING AKS ETISHI

Annotsatsiya

Mazkur ilmiy maqolada talmeh she'riy san'atining shoir poetik olamining aks ettishidagi ahamiyati, jumladan, Sirojiddin Sayyid ijodida tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. SHE'riy san'atlar obrazlar yaratishda, she'rning badiiy quvvatini oshirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, har qanday she'riy asarda she'r san'atlarning u yoki bu turini uchratish mumkin. Ba'zi bir asarlarda esa bir baytning o'zida bir necha she'riy san'at turlarining ketma-ket ravishda kelganligining ham guvohi bo'lamiz. Mumtoz she'riyatda qo'llanilgan she'riy san'atlarning juda ko'p turlari bugungi zamonaviy she'riyatda ham qo'llanilib kelinmoqda. Ba'zi bir she'riy san'atlarni, jumladan, arab alifbosi bilan bog'liqlarini bugungi she'riyatda deyarli uchratmaymiz. Sababi bu arab alifbosining iste'molda emasligi bilan bog'liq. Talmeh she'riy san'ati bugungi o'zbek she'riyatida ham o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda. SHE'riy san'atlardan nechog'lik foydalanish shoir mahoratiga bog'liq.

Kalit so'zlar: Adabiyot, she'riyat, badiiy san'atlar, mumtoz adabiyot, talmeh, she'riyat, qiyoslash, poetik obraz, badiiy vazifa.

ОТРАЖЕНИЕ ТАЛМЕХИЧЕСКОГО ИСКУССТВА В ТВОРЧЕСТВЕ СИРОЖИДДИНА САЙИДА

Аннотация

В данной научной статье рассматривается значение поэтического искусства талмеха в отражении поэтического мира поэта, в том числе его роль в творчестве Сирожиддина Сайида. Поэтические искусства очень важны для создания образов, повышения художественной силы поэзии, в любом поэтическом произведении можно встретить тот или иной вид поэтического искусства. Однако в некоторых произведениях мы также можем засвидетельствовать, что в одной строфе последовательно появляются несколько видов поэтического искусства. Многие виды поэтического искусства, которые использовались в классической поэзии, также используются в современной поэзии. Некоторые поэтические искусства, в том числе связанные с арабским алфавитом, мы почти не встречаем в современной поэзии. Причина в том, что арабский алфавит не в употреблении. Поэтическое искусство талмеха продолжает занимать свое место и в современной узбекской поэзии. Использование поэтических искусств зависит от мастерства поэта.

Ключевые слова: Литература, поэзия, изобразительное искусство, классическая литература, талмех, поэзия, сравнение, поэтический образ, художественная задача.

REFLECTION OF TALMEH ART IN SIROJIDDIN SAYYID'S WORK

Annotation

This scientific article reflects on the importance of talmeh's poetic art in the reflection of the poetic world of the poet, including its role in the work of Sirozhiddin Sayyid. Poetic arts are very important in creating images, increasing the artistic power of poetry, and in any poetic work, poetry can meet one type or another of Arts. In some works, however, we also witness that several poetic arts come in series of types in one verse itself. A huge number of types of poetic arts used in classical poetry are also used in today's modern poetry. Some poetic arts, including those associated with the Arabic alphabet, are hardly found in today's poetry. The reason is due to the fact that the Arabic alphabet is not in consumption. Talmeh's poetic art continues to have a place in Uzbek poetry today. How much use of poetic arts depends on the skill of the poet.

Key words: Literature, poetry, fine arts, classical literature, talmeh, poetry, comparison, poetic image, artistic task.

Kirish. Sirojiddin Sayyid ko'p bora murojaat qilgan san'at turlaridan yana biri bu – talmeh san'atidir. Talmeh arabchadan tarjima qilinganida “yashin chaqnashi”, “ko'z qirini tashlash” ma'nolarini anglatadi. YA'ni shoir o'z misralarida tarixda sodir bo'lgan biror voqea, biror qahramon, o'zidan oldin ijod qilgan yozuvchi – shoirlar ijodidan lavhalar, asar nomlari, undagi obrazlarga ishora berib o'tadi. “SHE'r va nasrda tarixiy shaxslar, voqealar, afsonalar, asar qahramonlariga ishora qilmoq san'ati talmeh deb ataladi”[1]

Adabiyotlar tahlili. “Televizor bilan suhbat” she'rining quyidagi o'rinlarida talmehga murojaat qilingan:

O'sha kun so'rida o'tirgandim men,
“Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Avazxon” tinglab.
Sen mening yam-yashil bolaligimga
Kirding yolg'izgina zangor ko'z bilan[2].

SHE'riy parchada televizorning insonlar hayotiga, xususan, lirik qahramon bolalik chog'larida qanday kirib kelishi tasvir etilgan. Talmeh san'ati sifatida qo'llanilgan “Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Avazxon” dostonlarining bolalik olamidagi beqiyosligi, qimmatli to televizor kirib kelguncha qanday bo'lgani, bu kabi dostonlarning, umuman, kitoblarning ular ma'naviyati yuksalishidagi ahamiyati ochiqdanadi.

Otini kishnatib Avazxon ketdi,
Yollarida shamol – mening kunlarim.

Misrada keltirilgan Avazxon dostonidagi bosh qahramonning nomidir. “Otini kishnatib Avazxon ketdi”, deganda shoir televizorga bandilik tufayli bolalarning kitoblardan yiroqlashishi, ma'naviy qashshoqlashuvga ishora qilmoqda. “Yollarida shamol – mening kunlarim” misrasida esa

bolalikning shamolday tez o'tishi, uni televizor qarshisida besamar o'tkazmaslikka chaqiruv da'vati mujassam.

Shoirning "Mutolaa" she'rida boshdan oyoq talmeh san'ati qo'llanilgan. SHE'r talabalarga bag'ishlangan bo'lib, unda o'qishga, bilim olishga da'vat ruhi sezilib turadi. Talabalarga buyuk ustoz shoirlar-u adiblar hayoti, asarlari namuna tariqasida keltiriladi.

Dovonlarning nurdan yarqirar,
Osmonlarning bunchalar moviy.
Yuragingga ummon bo'lib ham,
Osmon bo'lib kirar Navoiy.[2,100]

Shoir bu o'rinda Navoiy asarlarining ummon va osmon qadar cheksiz va sirli ekanligiga ishora qiladi hamda talabalarni bu tuganmas javohirdan bahra olishga chorlaydi. O'shandagina nurli va yorqin hayotga erishishni shoirona qalb bilan bashorat qiladi.

"Boburnoma" uzra kechalar
Yuraklaring sherday to'lg'onar.
Bobur bo'lib, shoh shoir bo'lib
O'smir qalbing qayta uyg'onar.

"Boburnoma"ni va Mirzo Boburni tilga olib, talmeh yaratgan shoir memuarining yuksak mahobatiga va u o'qiganlar qalbiga sher jasoratini solishi, qolaversa, Mirzo Bobur shaxsiyatidagi kuch va shijoatni o'zlarida mujassam etishga chaqiradi. Zero, Bobur Mirzoning mashaqqatli va sharafli hayot yo'li bugungi yoshlarga har tomonlama o'rnak bo'lgudek darajada o'tgan. O'n ikki yoshida taxt tepasiga kelib, adolatli siyosat yuritgani, qiyinchiliklarni yengib o'tib temuriylar davlatini qayta birlashtirishga bo'lgan harakatlari, badiiyat olamida, musiqa va harb ishlarida ko'plab yutuqlarga erishgani, namunali ota sifatida u zotdan ilmlilik, shijoatkorlik, qat'iyatlilik, mehnatsevarlik, qo'rqmaslik, vatanparvarlik, adolatpeshalik kabi ko'plab yaxshi xislatlarni o'rganish targ'ib etilgan.

Usmon Nosir qismatin o'qib,
Armonlarin chorlashlaring bor.
Cho'lpon bilan tonglar ko'ksida
Cho'lpon bo'lib porlashlaring bor[2].

Tahlil va natijalar. Shoirning mahorati shundaki, she'rida shoirlarning nomlarini keltirib, shunchaki san'at yaratish bosh maqsad emas, balki shu san'atlar vositasida Usmon Nosir va Cho'lponning hayot yo'li, qismati va ijodining asosiy yo'nalishlari haqidagi obrazli tasvirlarni kitobxonga singdirishdir. Ular ijodidagi yetakchi motivlarni anglash, xususan, Usmon Nosir she'rlarida aks etgan dardni his etish, shoir orzu qilgan hayotga erishish, uning qadriga yetib, munosib avlod bo'lishga undash hislari mavjud bo'lsa, keyingi misralarda Cho'lpon she'riyatining yetakchi motivlari yoritilar ekan, shoirdek xalqiga kamarbasta bo'lib yashashga undash, so'z o'yini orqali shoir Cho'lpondek Cho'lpon yulduz bo'lishga ishtiyoqmandlik hissini yoshlarga yuqtirishga harakat seziladi. SHE'r davomida Qodiriy, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor nomlari keltirilib, yoshlarni mutolaaga chorlab, buyuk adiblarning u yoki-bu xususiyatlarini o'zlarida shakllantirishga, ulardan o'rnak olishga undov seziladi.

Mashhur yozuvchi va shoirlar nomini tilga olib fikrlar tadrijini rivojlantirganlik holatini shoirming "Oloxoluu" she'rida ham uchramiz. SHE'r nomi yoqut tilidan tarjima qilinganida "hayot-mamot" degan ma'noni anglatadi. SHE'rda lirik qahramon qalbini tilkalagan inqirozlar, evrilishlar, isyonlar talqini tilga olinadi. Insoniyat paydo bo'libdiki, yashash uchun kurashadi, hayotsevarlik, ezgulik yo'lidagi fidoyilik uning qonida bor. Biroq hayot hamma vaqt ham yaxshiliklardan iborat emas. Ba'zan shunday tubanliklarga ham duch keladiki, buni hatto o'zi sezmay ham qoladi. Yoki g'arazli maqsadlar bilan yashayotganlar kasriga qolib ketadi. Bundan esa butun sayyora, Ona zamindan to Azon qatlamigacha bo'lgan sarhaddagi butun

borliq, ayniqsa, insoniyat ozor chekishi tilga olinadi. Bunday ozorlar birinchi galda shoir qalbini nishonga oladi, bedorlik ishqiga muhtalo etadi.

Mardlari jon chekar mamlakatimning,
Qolmasin deb toki birorta g'addor
Aytmatov uxlamas,
Oripov bedor.
Tantana qilgandi bir paytlar mamot,
Qarang, Cho'lpon, Fitratlarni qaytarar hayot[2].

SHE'rda Chingiz Aytmatov, Abdulla Oripov, Cho'lpon, Fitrat kabi buyuk shoir va yozuvchilarning bedorligi, insoniyat dardi bilan yashashlari, ijod qilishlari lirik qahramon ko'nglida ham bedorlik tuyg'ularini uyg'otadi, qalban shunday yurt fidoyilari – shoirlar borligidan, vatanparvar, xalqparvar, Ona sayyora taqdiri uchun qayg'uradigan zotlarning borligini, ular yaratgan buyuk asarlarning abadul-abad yurt taqdiriga, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishini, qolaversa, kelajak avlod uchun bir tarbiyaviy darsxona bo'lishini ta'kidlab dalda bo'ladi. "Shoir tarixiy shaxslarni tasvirlar ekan, o'quvchi ularni ko'z oldiga keltiradi, ta'kidlanayotgan g'oyani aniqroq tushunib oladi. Agarda ishora qilinayotgan afsonaviy yoki tarixiy shaxs o'quvchiga noma'lum bo'lsa, shoir ko'zlagan maqsadiga yeta olmaydi. Bunda shoir ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda talmeh yaratsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, yo'qsa bu san'at turi o'z qimmatini yo'qotadi"[3].

Sirojiddin Sayyid o'z she'rlarida deyarli hamma biladigan shaxslarni tilga oladi. SHE'r g'oyasi va mazmunidan kelib chiqib tarixiy shaxslar nomi tanlanadi. Tahlillardan anglashiladiki, ularda uchraydigan talmeh san'atining yorqin namunalari kitobxonni befarq qoldirmaydi, ularda voqelikka nisbatan uyg'oqlik, ziyraklik, bedorlik tuyg'ularini yuzaga keltiradi. Mudroq yashab bo'lmaslikdan ogohlantiradi.

Shoirming "Xavotir" nomli to'rtligi ham ma'naviy inqiroz masalasiga bag'ishlangan bo'lib, Qodiriy nomi tilga olinib talmeh san'ati qo'llanilgan.

Qayda qoldi nafasat-u bayot bazmi,
Kitob ochib, yorug' bo'lgan hayot bazmi?
Kechalari qo'rqinch tushday qo'rqitadi
Qodiriy o'qimagan avlod bazmi[4].

Shoir "Qodiriy o'qimagan" deganida nafaqat Abdulla Qodiriy balki, butun ijod ahlini nazarda tutadi.

Sirojiddin Sayyidning talmeh san'atidan foydalanish jarayonini o'rganar ekanmiz, imkoniyatimiz darajasida shuni angladikki, shoir o'ziga ruhan yaqin bo'lgan soha vakillari – buyuk yozuvchilar, shoirlar, adiblar va ular yaratgan asarlar nomini tilga olish orqali o'z badiiy niyatini yuzaga chiqaradi. Tahlil doirasida e'tiborimizga tushgan she'rlarning barchasida tarixiy shaxslardan faxrlanish hissini, ular shaxsiyatidagi ijobiy xususiyatni o'zlashtirishga targ'ibni, asarlaridan bahramand bo'lish tuyg'usini singdirishni yoki ularga munosib avlod bo'lishga undash tuyg'ularini kuzatishimiz mumkin. Shoir ijodida Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Furqat, Boborahim Mashrab, Avaz O'tar, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi buyuk darg'alarimiz, zamondosh, tengdosh ijodkorlardan esa Erkin A'zam, Eshqobil Shukur, Azim Suyun, Muhammad Yusuf, Sadridin Salim, Ikrom Otamurod, Matnazar Abdulhakim, Murod Muhammad Do'st, Xayridin Sulton, Mahmud Toir, Anvar Obidjon, Xurshid Do'stmuhammad, Xurshid Davron, Iqbol Mirzo kabi o'nlab ijodkorlar nomlarini qalamga oladi. Sanab o'tilgan ijodkorlarning barchasi o'z ijod namunalari bilan tarix zaravaqlariga kirgan va tahlil nuqtayi nazaridan e'tibor beradigan bo'lsak, talmeh san'ati xususiyatlarini yaxshi anglagan Sirojiddin Sayyid undan unumli va o'rinli foydalangan. Nafaqat ijodkorlar nomlari, balki ijod namunalari

nomlari ham tilga olingan satrlar shoir ijodida ko'zga tashlanadi.

“SHe'r-u g'azal” nomli g'azalidagi quyidagi satrlar talmehning yorqin namunasidir:

Gulxan yoqibdir Gulxaniy, bir toza dil yo gul qani?

Zarbulmasal bo'lmish hayot, “Zarbulmasal” birlan keeling[4].

Gulxaniy va asarining nomi tilga olinib, talmeh san'ati yaratilgan. Shoir bir vaqtning o'zida ham shoir shaxsiyati, ham “Zarbulmasal”ning ijtimoiy-estetik qiymatini birdek ochib beryapti. “Zarbulmasal bo'lmish hayot” bilan asar nomining ketma-ket keltirilishi bu ma'noni qavartib ifodalashda shoirning poetik mahoratini yaqqol namoyon qiladi. Qolaversa, kitobxonga asarni o'qib, uqib hayotiy xulosalar chiqarishga undov seziladi.

Shoironing “Istiqlo'l” she'rida yozuvchi Shuhrat tilga olinadi. Uning shaxs sifatida xalqi, adabiyoti va yurt istiqboli uchun qilgan bemisl xizmatlari talqin etilar ekan, xalq qalbida mangu o'z o'rniga ega siymo bo'lgani adib asariga ishora qilinish orqali (“Oltin zanglamas”) ko'pma'noli poetik qatlamlarni yuzaga keltiradi:

Zamon mard zotlarni bekor tanlamas,

Oltin zanglamagay, oltin zanglamas[4].

“Navoiy shahrida Mir Alisher Navoiy so'zlari” she'rida hazrat Navoiyning yosh avlodga o'gitlari, nasihatlari o'z ifodasini topgan. SHe'rd a Navoiy shahrida yosh ijodkorlarga bag'ishlab o'tkazilgan “Umid nihollari” anjumanida shoir tilidan yoshlarga qarata ilm olish, ma'rifat tarqatishni Mirzo Ulug'bekdek siymodan o'rganish lozimligiga ishora qilar ekan, Sirojiddin Sayyid buni Navoiyning Ulug'bek haqidagi quyidagi misralarini keltirish orqali asosli ifodalaydi:

Jahon evruldi garchi necha ming bor,

“Temurxon naslidin...”deb aytganim bor[4].

Hayot falsafasi bilan yo'g'rilgan “Ism” deb atalgan to'rtligida mashhur “Dilxiroj” kuyi tilga olinib, umr kechmishi tufayli tug'iladigan so'roqlar-u, dunyoning zulmat-u zilolatlarga qarshi Siroj ismlik nur taratadigan chiroqlari borligi nafis so'z o'yinlari orqali badiiylashtiriladi.

Hayot bir “Dilxiroj”dir, sog'inch-u firog'im bor,

Umrin – boj-u xirojdir, savol-u so'rog'im bor.

Dunyoda qarolik ko'p, zulmat ko'p-u zalolat,

Mening ismim Sirojdir – ichimda chirog'im bor[4].

Mana shu o'rinda shoir milliy kuydagi ohanglar jozibasida hayot obrazining yangicha talqinini aks ettirgan hamda o'z ismini keltirish orqali yozganlarining ezgulikka xizmat qilishiga ishora qiladi.

“Somon yo'li somonlari”da lirik qahramon bolalik sog'inchlari, oppoq osmon ostida oqarib turgan somon yo'li yorug'ida somon tashigan kechalarni xotirlar ekan, bolaligiga qo'shilib moziydan sadolari kelayotgan xalq qo'shiqlaridan birining naqoratini eslab o'tadi:

Bolaligim, bug'doylaring qayda, ho qayda?

Yulduzlardan sado kelar: “Mayda, ho mayda”.

“Xo'p hayda” xalqmiz tomonidan asrlar bo'yi kuylab kelingan mehnat qo'shiqlaridan biridir. Lirik qahramonning qalb iztiroblariga yulduzlar ham sherik, ular ham xuddi bolalikdagidek lirik qahramon bilan birga. Samimiy tuyg'ular ifodasi qo'shiq nomining qo'llanilishida yanada yaqqol ko'zga tashlangan.

Xulosa. Tahlillardan anglashiladiki, Sirojiddin Sayyid talmeh san'atini o'z ijodida o'rinli qo'llab, she'rlarining badiiy saviyasini yuksaltira olgan.

ADABIYOTLAR

1. Асаллаев А. ва бошқ. Бадий санъат жозибаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 28 б.
2. Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. Шеърлар. Достонлар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 480 б.
3. Ғаниев И., Афоқова Н. Абдулла Ориф фалсафаси. – Тошкент: Мухаррир, 2021. – 308 б.
4. Сирожиддин Саййид. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достонлар. Ғазал дафтари. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 576 б.
5. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Фан, 2004. – 128 б.
6. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.